

UMUMTA'LIM MUASSASALARI JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA MASOFAVIY O'QITISH TIZIMI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Yeldasheva Gulnoz¹

¹Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida masofaviy ta'limni joriy etishning ahamiyati va imkoniyatlari, shuningdek, bu jarayonning ilmiy-nazariy asoslari atroflicha tahlil qilingan. Masofaviy ta'limning pedagogik va texnologik afzalliklari, uni amaliyotga tatbiq etishda raqamli texnologiyalarning o'rni hamda ular orqali o'qitish samaradorligini oshirish mexanizmlari asoslangan. Shuningdek, umumta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini oshirishda masofaviy ta'lim platformalaridagi kurslar, videolarlar va test baholash tizimlaridan foydalanishning amaliy samaradorlik ko'rsatkichlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, raqamli transformatsiya, jismoniy tarbiya o'qituvchilari, malaka oshirish, raqamli kompetensiya, onlayn kurs, pedagogik innovatsiya, raqamli platforma.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-maydagi "O'zbekiston davlat sport akademiyasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-197-sonli va 2025-yil 8-iyuldagi "2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSh) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi PQ-221-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 559-sonli qarorlarida sport ta'lim tizimlarini raqamli transformatsiya qilishning huquqiy va amaliy asosini belgilab berdi [1, 2, 3].

Mazkur qarorlarda ta'lim sohasini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, masofaviy o'qitish modullarini keng joriy etish hamda pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini oshirish dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Shu bilan birga, mazkur hujjatlar ta'lim jarayonlariga zamonaviy raqamli platformalarni integratsiya qilish, ta'limning individuallashtirilgan va interaktiv shakllarini rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot

faoliyatida raqamli vositalardan foydalanish ko'lamini kengaytirishga qaratilgan.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar ta'lim va sport sohalarida raqamli muhitni shakllantirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda yangilash, pedagog va trenerlarning axborot savodxonligini oshirish hamda masofaviy ta'limning samaradorligini ta'minlash uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar

Zamonaviy ta'lim jarayonlarida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi O'zbekiston ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirishga zamin yaratdi. Ayni paytda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini muntazam yangilab borish hamda ularni ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishtirish jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi [11, 12].

Masofaviy ta'lim - bu an'anaviy ta'lim usullaridan farqli ravishda ta'lim oluvchining joylashgan manzili va vaqt omillaridan mustaqil holda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshiriladigan ta'lim shaklidir. Uning asosiy vazifasi ta'lim oluvchiga

mustaqil bilim olish, o'qituvchi bilan interaktiv muloqot qilish va ilg'or axborot resurslaridan foydalanish imkonini yaratishdir. Masofaviy ta'lim tizimi nafaqat axborot texnologiyalari sohasidagi yangiliklarni, balki zamonaviy pedagogika yutuqlarini ham mujassamlashtiradi [22].

Masofaviy ta'lim tizimidan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari, uning didaktik hamda uslubiy asoslari masalalari O'zbekistondagi qator olimlar tomonidan ilmiy tahlil etilgan. Xususan, N. Muslimov, A. Abduqodirov, U. Begimqulov, A. Xoliqov A. Hayitov, M. Lutfillaev va A. Tolametovlarning tadqiqotlarida masofaviy ta'limning pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi, ta'lim jarayonini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish hamda ta'lim samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari atroflicha yoritilgan [4, 8, 9, 11,15, 17, 23].

Masofaviy ta'lim tizimining nazariy, metodologik va amaliy jihatlari nafaqat milliy, balki xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham keng o'rganilgan. Xususan, O. Shves, I. Allen, A. Amadco, G. Osmuk, B. Lehmann, H. Koppelman va R. Jones kabi olimlar o'z ishlarida masofaviy ta'limni faqat ma'lumot yetkazish usuli emas, balki o'quv jarayonini shaxsiylashtirilgan, interaktiv va mustaqil bilim olish muhiti sifatida tashkil etish lozimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, onlayn o'qitish va masofaviy muloqot platformalari orqali tashkil etilgan darslar ta'lim oluvchining shaxsiy tajribasini boyitadi, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi va pedagogik kompetensiyalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi [5, 6, 7, 13, 14, 19, 22].

P. Perez-Camarero (2022) o'zining "Online Training of Teachers and Coaches" nomli bibliografik tahlilida masofaviy ta'limni o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida eng samarali usullardan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, onlayn kurslar nafaqat malaka oshirish jarayonini individuallashtirish va vaqtinchalik hamda hududiy cheklovlarini bartaraf etish imkonini beradi, balki o'qituvchining o'quv jarayonini mustaqil rejalashtirish va o'z

faoliyatini tahlil qilish ko'nikmasini ham shakllantiradi. Shu bilan birga, olim ayrim muammolarga — jismoniy amaliy ko'nikmalarni masofaviy formatda to'liq singdirishdagi cheklovlar, texnik vositalarga bog'liqlik va ishtirokchilarning motivatsiya darajasining pastligi kabi holatlarga e'tibor qaratadi [20,21].

S. Bennett, L. Lockyer, N. Kelly fikricha raqamli ta'lim davrida o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida onlayn va gibril (aralash) ta'lim modellarining ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, zamonaviy jismoniy tarbiya o'qituvchisi videotahlil, virtual simulyatsiya, onlayn testlar va raqamli muloqot vositalari orqali dars jarayonini samarali boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Masofaviy ta'lim tizimi faqat elektron kurs emas, balki o'qituvchining raqamli kompetensiyalarini uzluksiz integratsiya qiluvchi kompleks muhit sifatida qaralishi zarur [10].

R. Jones, S. Armour va P. Potrac (2004) fikricha, ta'lim jarayoni uchun masofaviy ta'lim doimiy o'zini o'zi rivojlantirish mexanizmini yaratadi [12].

P. Perez-Camarero tadqiqotlarida esa sport pedagoglari uchun onlayn kurslarning eng muhim ustunligi o'zlashtirishning individuallashtirilganligi va o'qituvchilarning o'z tajribalarini raqamli tahlil qilish imkoniyatidir [20].

Natijalar va muhokama

Bugungi kunda O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida samarali qo'llanilmoqda. Institut tomonidan mazkur yo'nalishda bir qator muhim tashabbuslar amalga oshirildi. Jumladan, Zoom videokonferensiya dasturi va boshqa onlayn ta'lim platformalari orqali jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun raqamli kurslar, elektron o'quv modullari, videodarslar, test tizimlari, mustaqil ta'lim topshiriqlari hamda onlayn seminarlar

tashkil etildi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi — o'qituvchilarni ish joyidan ajralmagan holda, davlat ta'lim standartlariga muvofiq, kasbiy faoliyatiga mos sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini muntazam takomillashtirishga yo'naltirishdan iboratdir.

Masofaviy ta'limning ilmiy-nazariy asoslari shuni ko'rsatadiki, u modullilik, parallel o'qitish, keng imkoniyatlar, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy tenglik va xalqaro integratsiyani ta'minlaydi. Mazkur shakl o'qituvchilarga vaqt va makon chegaralarisiz o'qish, o'z faoliyatini mustaqil tashkil etish, o'z tajribasini boyitish imkonini beradi.

Masofaviy o'qitish tizimini samarali joriy etish uchun bir nechta muhim yo'nalishlarni hal etish zarur: birinchidan, hududiy masofaviy ta'lim markazlarining texnik bazasini mustahkamlash; ikkinchidan, o'qituvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va ularning raqamli savodxonlik darajasini baholash; uchinchidan, masofaviy malaka oshirish kurslari uchun o'quv-me'yoriy hujjatlar, o'qituvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar yaratish. Institutda bu borada mavjud kurslarning tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat tinglovchilar multimedia darsliklar, interfaol testlar va virtual seminarlarni afzal ko'rmoqda.

Masofaviy ta'limning muvaffaqiyatli ishlashi ko'p jihatdan uning o'quv-uslubiy ta'minotiga bog'liq. Institut faoliyatida bu yo'nalish alohida e'tibor markazida turib, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun ishlab chiqilayotgan elektron o'quv majmualar, video-darslar, amaliy topshiriqlar to'plami, nazorat testlari va metodik yo'riqnomalar uzviy tizimga keltirilgan. Ularning barchasi davlat talablari asosida ishlab chiqilib, tarmoq orqali erkin foydalanish imkoniyatiga ega.

Masofaviy o'qitish kurslarining o'quv-uslubiy ta'minoti quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- o'quv-me'yoriy hujjatlar (davlat talablari, o'quv rejalar, fan dasturlari, kurs loyihalari);

- bosma, audiovizual va elektron o'quv vositalari;

- interfaol platformalar (forumlar, vebinarlar, "Zoom", "Moodle" tizimlari);

- nazorat va baholash mexanizmlari (test tizimlari, diagnostika modullari).

Ushbu majmualarga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi, ya'ni davlat ta'lim standartlariga mos bo'lishi, tinglovchilarning mustaqil o'rganish motivatsiyasini kuchaytirishi, interfaollik va vizuallikni ta'minlashi, modullilik va multimedia vositalaridan samarali foydalanishi lozim. Shu bilan birga, platforma foydalanuvchi uchun qulay interfeysga ega bo'lishi, baholash jarayonida shaffoflikni ta'minlashi hamda individual yondashuvga imkon berishi zarur.

O'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida masofaviy o'qitish texnologiyalarining samaradorligi ularning pedagogik innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq eta olishiga ham bog'liq. Shu maqsadda Institutda "Jismoniy tarbiya va sportda axborot kommunikatsiya texnologiyalar" moduli orqali tinglovchilarning raqamli madaniyatini oshirish, virtual mashg'ulotlarni tashkil etish, natijalarni elektron tahlil qilish va o'quvchilarning jismoniy faolligini onlayn monitoring qilish kabi yangi kompetensiyalarni shakllantiradi.

Mazkur platformalar orqali umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari uchun ma'ruza matnlari, videodarslar, test tizimlari, mustaqil ta'lim topshiriqlari, seminar mashg'ulotlari va onlayn forumlar integratsiya qilingan. Har bir tinglovchi o'z ish joyidan ajralmagan holda, faoliyati va kasbiy ehtiyojidan kelib chiqib, individual o'quv traektoriyasini belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu jarayon nafaqat malaka oshirishning samaradorligini oshirdi, balki o'qituvchilarning o'zini o'zi baholash va o'quv natijalari yuzasidan fikr almashish ko'nikmalarini ham rivojlantirdi.

Shu bilan birga, mazkur tajriba natijalari shundan dalolat beradiki, masofaviy ta'lim umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz yangilash va ilmiy-innovatsion yondashuv asosida

rivojlantirish uchun eng qulay pedagogik model hisoblanadi. Uning asosiy afzalliklari – vaqt va joy jihatidan erkinlik, axborot manbalaridan keng foydalanish, fanlararo integratsiya imkoniyati va raqamli muhitda muloqot madaniyatini shakllantirishdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining aksariyati masofaviy ta'lim vositalaridan foydalanish istagiga ega, biroq texnik imkoniyatlar va AKT savodxonligi masalasida ayrim kamchiliklar mavjud.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jismoniy tarbiya o'qituvchilarining malakasini oshirish tizimida masofaviy o'qitish – bu ta'lim tizimining yangi paradigmasidir. U nafaqat vaqt va resurs jihatidan qulaylik, balki uzluksiz kasbiy rivojlanish, innovatsion pedagogika va

raqamli kompetensiya shakllanishiga xizmat qiladi. Masofaviy o'qitish tizimi orqali o'qituvchilar mustaqil ta'lim olish, tajriba almashish, ilmiy-tadqiqot faoliyatida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Kelgusida Institut faoliyatida ushbu yo'nalishni yanada takomillashtirish uchun quyidagi masalalarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: o'quv-uslubiy majmualarni yangilash, interfaol test va video kontentlarni boyitish, o'qituvchilarning raqamli psixologik tayyorgarligini oshirish, xalqaro platformalar (Moodle, Coursera, Edmodo) tajribasini milliy tizimga moslashtirish hamda jismoniy tarbiya fanining o'quv jarayonida masofaviy va an'anaviy ta'limning integratsiyasini ta'minlash. Shu orqali Institut nafaqat respublika miqyosida, balki Markaziy Osiyoda ham jismoniy tarbiya o'qituvchilarining masofaviy malaka oshirish sohasida yetakchi metodik markazga aylanishi mumkin.

Distance learning system and its components in the system of professional development of physical education teachers of general educational institutions

Yeldasheva Gulnoz¹

¹Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Education and Sports, Tashkent city, Republic of Uzbekistan.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the importance and possibilities of introducing distance learning in the system of advanced training of physical education teachers operating in secondary schools, as well as the scientific and theoretical foundations of this process. The pedagogical and technological advantages of distance learning, the role of digital technologies in its implementation, and mechanisms for increasing the effectiveness of teaching through them are discussed. The practical effectiveness of using courses, video lessons, and test assessment systems on distance learning platforms in advanced training of physical education teachers in secondary schools is also highlighted.

Keywords: distance learning, digital transformation, physical education teachers, professional development, digital competence, online course, pedagogical innovation, digital platform.

Дистанционное обучение в системе повышения квалификации учителей физической культуры общеобразовательных учреждений и его компоненты

Елдашева Гульноз¹

¹Институт переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту, город Ташкент, Республика Узбекистан.

Аннотация. В данной статье подробно анализируется значение и возможности внедрения дистанционного обучения в системе повышения квалификации учителей физической культуры, работающих в общеобразовательных учреждениях, а также научно-теоретические основы этого процесса. Обоснованы педагогические и технологические преимущества дистанционного обучения, роль цифровых технологий в его практическом применении и механизмы повышения эффективности обучения посредством них. Также освещены показатели практической эффективности использования курсов, видеоуроков и систем тестирования на платформах дистанционного обучения при повышении квалификации учителей физической культуры общеобразовательных школ.

Ключевые слова: дистанционное обучение, цифровая трансформация, учителя физической культуры, повышение квалификации, цифровая компетенция, онлайн-курс, педагогические инновации, цифровая платформа.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-maydagi PQ-197-son qarori "O'zbekiston davlat sport akademiyasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-iyuldagi PQ-221-son qarori "2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSh) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida". – Toshkent, 2025.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktyabrdagi 559-son qarori "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida". – Toshkent, 2022.
4. Abduqodirov A.A. Masofaviy ta'limning nazariy asoslari va amaliy jarayonlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020. – 210 b.
5. Allen I.E., Seaman J. Changing Course: Ten Years of Tracking Online Education. – Babson Survey Research Group, 2013. – 55 p.
6. Allen I.E., Seaman J. Digital Learning Compass: Distance Education Enrollment Report. – Babson Survey Research Group, 2017. – 35 p.
7. Amadco A. Online Learning Pedagogies and Digital Instruction Models. – London: Routledge, 2020. – 214 p.
8. Begimqulov U.Sh. Ta'lim jarayonida AKTdan foydalanishning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan, 2016. – 256 b.
9. Begimqulov U.Sh., Xoliqov A.K. Masofaviy ta'lim: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish, 2021. – 198 b.
10. Bennett S., Lockyer L., Kelly N. Teachers' Digital Literacy and the Use of Pedagogical Technologies in the Era of Digital Education. – 2024. // Journal of Digital Learning and Teaching Practice. – 2024. – Vol. 12, No. 1. – P. 25-41.
11. Hayitov A.H. Raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va uning didaktik asoslari. // Pedagogika. – 2022. – №3. – B. 45-52.
12. Jones R., Armour S., Potrac P. Understanding the Role of Distance Learning in Creating Mechanisms for Continuous Professional Development // Teaching and Teacher Education. – 2004. – Vol. 20(1). – P. 67-75.
13. Jones R., Richards G. Designing Online Learning Environments for Higher Education. – New York: Springer, 2018. – 240 p.
14. Lehmann B., Koppelman H. E-learning Strategies in Higher Education. – Berlin: Springer, 2005. – 178 p.
15. Lutfillaev M.M. Elektron ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya, 2022. – 210 b.
16. Muhammadiyev F.G. The Need to Improve the Digital Skills of Future English Teachers in Uzbekistan // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2023. – Vol. 11, No. 2.

17. Muslimov N.A. Kasb ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b.
18. Olamova M.U. Developing Future Educators' Digital Competence Through Pedagogical Design // Volume 3, Issue 3. – March 2025. – P. 188–195.
19. Osmuk G. Trends in Distance Education Development in the Digital Era // European Journal of Contemporary Education. – 2021. – Vol. 10(4). – P. 921–930.
20. Perez-Camarero P. Online Training for Sports Educators: Individualized Learning and Digital Self-Analysis Opportunities // Journal of Digital Education and Sport Pedagogy. – 2022. – Vol. 4, No. 2. – P. 58–72.
21. Perez-Camarero P. Online Training of Teachers and Coaches: A Bibliographic Analysis. – 2022. // International Journal of Educational Technology and Online Learning. – 2022. – Vol. 5(3). – P. 112–130.
22. Shvets O. Distance Learning as a Modern Educational Technology // International Journal of Education and Research. – 2019. – Vol. 7(6). – P. 45–52.
23. Tolametov A.A. Forming the Technological Content of the Teacher's Information-Communication Competence // European Science Methodical Journal. – 2024. – Vol. 2, Issue 7. – P. 59–65.